

Azob



14:53 / 12.06.2021 3219

Solih tuyaning so'yib, o'ldirilganini bilgach, afsuslandi va juda xafa bo'ldi. Insonlarga qarata: «**Diyoringizda uch kun bahramand bo'lib turing. Bu yolg'on bo'lmagan va'dadir**» (*Hud surasi, 65-oyat*) dedi.

Mana shu yurtda yer yuzida fitna-fasod qo'zg'ab yuradigan to'qqizta buzg'unchi kimsa ham yashardi. Ular tunda Solih alayhissalomni va uning oilasini pinhoni ravishda o'ldirib yuborishga kelishdilar.

- Agar bizdan so'rasha, bilmaymiz, deb turaveramiz, deyishdi. Lekin Alloh taolo Solih alayhissalomni va u kishining ahli oilalarini asrab qoldi. Nihoyat aytilgan uch kun ham o'tib, azob keldi. Odamlar tongni odatdagidek qarshiladilar. Banogoh qattiq zilzila bilan dahshatli qichqiriq yangradi. Mana shu qichqiriq zarbidan yuraklar yorilib ketdi. Zilzila oqibatida uylar vayronaga aylandi. Samud qavmi uchun shiddatli kun bo'ldi. Odamlarning barchasi vafot etib, shahar

xarobaga aylandi. Solih alayhissalom va u kishiga ergashgan mo'minlar bu badbaxt shaharni tashlab chiqdilar. Endi ular bu yerda nima ham qilishardi. Qavmining jasadlariga ko'zi tushgan Solih alayhissalom hazin ovozda:

- **«Ey qavmim! Darhaqiqat men sizlarga Parvardigorim risolatini yetkazgan va nasihatlar qilgan edim. Lekin sizlar nasihatgo'ylarni sevmasdingiz»**, (*A'rof surasi, 79-oyat*) dedilar.

(Bir vaqtlar gullab yashnagan shahar o'rnida) bugun huvillagan saroy xarobalari va tashlandiq quduqdan boshqa hech narsa qolmadi. Biror chaqiruvchi ham, unga javob qiluvchi ham topilmaydigan bo'm-bo'sh qo'rqinchli shahar xarobalari ko'zga tashlanib turibdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Shomga ketar ekanlar Samud qavmi yashagan diyorga yaqinlashib, o'z ashoblariga: «O'zlariga zulm qilgan kimsalar maskanlariga, ularga yetgan narsa sizlarga ham yetib qolishidan qo'rqib yig'lagan holda kiringiz!» dedilar. **«Ogoh bo'lingizkim, Samud (qabilasi) Parvardigorlariga kofir bo'lgan edilar. Ogoh bo'lingizkim, Samud (qabilasi) halokatga uchradi»**

(*Hud surasi, 68-oyat*)

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad